



Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani

2-umumta'lim maktabning Geografiya

va iqtisodiy bilim asoslari fani

o'qituvchisi Gulshoda Obloqulova Ochilovna

Mavzu: GLOBAL MUOMMO: OROL DENGIZINING QURISHI, SABABLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI.

Tog'lar chiqib yerga kirmagan chiqar

Yulduzlar ham birdan so'nmagan chiqar

Dunyo hech vaqtda ko'rmagan chiqar

Bir maydonda dengizda qurub qolgani.

Annostatsiya: Ushbu maqolada orol muammosi va uning yechimini topish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: Orol muammosi, mintaqaviy muammolar ularni topish yechimlari.

Orol va Orolbo'yi muammosini yechishdagi uchta asosiy yo'nalishlar ya'ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitar-epidemiologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e'tibor qaratildi.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inkirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.



Bu haqda quyidagi ma'lumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli "o'lik" dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. gektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtda, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llashish sur'atlari o'sib bormoqda.

Orol dengizi — O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan, uz. 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shahrik.) bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuq. 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori pliotsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan. Tubining relyefi (g'arbiy qismini hisobga olmaganda) tekis. Orol dengizida juda ko'p yarim orol va qo'ltiqlar bo'lgan. Shimol qirg'oklarida eng katta qo'ltiqlaridan Chernishev, Paskevich, Sarichig'anoq, Perovski, janubi-sharqiy va sharqiy qirg'oqlarida Tushbas, Ashshibas, Oqsag'a, Suluv va boshqa, Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladigan joylarida Ajiboy, Tolliq, Jiltirbas qo'ltiklari, Qulonli va Mo'ynoq yirik yarim orollari bo'lgan. Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda Sariqamish va O'zbo'y orqali Orol dengizi suvi vaqt-vaqti bilan Kaspiyga quyilgan, suv sathi ancha baland bo'lib, jan.vajan.-sharqidagi bir necha ming km² maydonli sohil suv ostida bo'lgan. Orol dengizi unchalik chuqur emas. Chuqur joylari Orol dengizining g'arbiy qismida. Qoraqalpog'istonning shimoliy qismi Ustyurt tegisligi yonida chuqurligi 69 m gacha yetgan.

Orol dengizi qirg'oklarining morfologik tuzilishi juda murakkab. Ular bir-biridan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Shimoliy qirg'og'i baland, ayrim yerlari past, chuqur qo'ltiqlar bor. Sharqiy qirg'og'i past; qumli, juda ko'p mayda qo'ltiq va orollar bo'lgan. Janubiy qirg'og'i Amudaryo deltasidan hosil bo'lgan.

Orol dengizida suv sathining yil davomida o'zgarib turishi Amudaryo va Sirdaryoning bahor-yoz paytlarida toshishi bilan bog'liq. Bahorgi yomg'irdan ham dengiz sathi ko'tariladi. Suvi sathining yil davomida o'zgarish amplitudasi urtacha 25 sm ga teng



bo'lgan. Suvining sho'rliги o'rtacha 10—11%". Suvdagi tuzlarning ko'p qismini osh tuzi va sulfatli magniy tuzi tashkil etgan. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, suvi Kaspiy dengizi suviga o'xshash. Orol dengizi suvining tarkibidagi tuz 11 mlrd. t ga yaqin deb baholangan. Bu tuzlar sanoat ahamiyatiga ega. Dengiz suvi, ayniqsa, markaziy qismida juda tiniq. Suv, xususan, qishda tiniq bo'ladi. Yoz oylarida ham 24 m chuqurlikkacha dengizning tubi ko'rinadi. Suvining rangi ko'pgina qismida ko'k, qirg'oklariga yaqini ko'kimtir tusda. Amudaryo bilan Sirdaryoning quyilish joyida suvi loyqa. Dengiz dekabr o'rtalaridan mart oxirigacha muzlaydi. Yozda suvning yuqori qismidagi temperaturasi 27° ga yetadi. Chuqurlik ortishi bilan temperatura tez pasayadi. Yozda 1 m chuqurlikda temperatura 8° ga o'zgaradi. Dengiz ustida havoning urtacha temperaturasi yozda 24—26°, qishda —7°, —13,5°. Orol dengizi sazan, cho'rtan, so'v'yan, sudak, oqchavoq, laqqa, taran (leshch), pilmay Orol dengizining kosmosdan olingan surati (2002-yil).

Dengizda navigatsiya mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlari faoliyat ko'rsatgan. Orol dengizi atrofida aholi kam bo'lgan. Aholi, asosan, baliqchilik bilan va, qisman, chor-vachilik, ondatra urchitish va sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. O'tgan asrning 90-yillarigacha dengizdan baliqovlangan. Aralsk va Mo'ynoq shaharlari va bu shaharlar atrofida ko'p sonli baliq ovlash xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan, Amudaryo deltasida, Avan posyolkasida (Ko'korol o.), Bugun po-syolkasida (sharqiy sohil), Uyali va Uzunqir orollarida baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan.

Orol dengizini birinchi marta A. I. Butakov 1848—49 yillarda tadqiq etgan va haritaga tushirgan.

Orol dengizida suv sathi pasayishining uning suv yuzasi va suv sig'imiga ta'siri Orol dengizi da suv sathining pasayishi suv balansi elementlarining qiymatlariga ham keskin ta'sir ko'rsatdi: 1911—1960-yillarda dengiz sathi o'rtacha 53,04 m ni tashkil etib (Boltik, sistemasida), daryolar dengizga quyadigan suv miqdori 56 km³, dengiz yuzasiga yog'gan atmosfera yog'inlari miqdori esa 9,1 km³ ga teng bo'lgan. Sarflanish, ya'ni chiqim esa, asosan, bug'lanishdan iborat bo'lib, shu davrda o'rtacha 66,1 km³ ni tashkil etgan. Shu davr ichida suv balansida salbiy farq qayd etilgan: dengiz har yili 1 km³ dan, 1911—1960-yillar davomida 50 km³ hajmdagi suvni yo'qotgan.

Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo'lakka bo'lingan: birinchisi — kichik va sayoz shimoliy qismi (sho'rliги — 8—13g/l); ikkinchisi — nisbatan kattaroq maydonga ega bo'lgan va sayoz sharqiy qismi (sho'rliги — 69—72 g/l); uchinchisi — eng chuqur hisoblangan g'arbiy qismi (sho'rliги — 68-69 g/l). Rossiya konferensiyasi Orol dengizi qurishi sekinlashganini xulosa qilib uni shu holatda saqlashga chaqirdi.



Orol dengizining bugungi holati (oktabr 2008)

Orol dengizi (qoz. Aral Teņizi, Aral Tengizi, qor. Aral ten'izi) O'rta Osiyoda joylashgan yopiq suv havzasidir. Shimoldan Qozog'iston, janubdan Qoraqalpog'iston (O'zbekiston) yerlari bilan o'ralgan.

1960-yillargacha maydoni 68,000 km² bo'lib, dunyoda kattaligi bo'yicha to'rtinchi ko'l bo'lgan. Biroq, uni ta'minlovchi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining ko'p miqdorda irrigatsiyaga sarflanishi uning hajmini keskin kamaytira boshladi. 2007-yilga kelib, Orol dengizi maydoni 50 yil avvalgiga nisbatan 90 % qismini yo'qotib, uchta alohida ko'lga aylandi.[2] Sho'rlik oshishi Orol dengizi va atrofidagi nabotot va hayvonot qirilishiga sabab bo'ldi.

Mahalliy iqlim o'zgardi; yoz issiqroq, qish esa quruq va sovuqroq bo'la boshladi.

2010-yil ma'lumotlariga ko'ra Orol dengizi maydoni 13,900 km² dir.[3]

1996-yil yanvarida O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida Orol dengizi ekologik holatini yaxshilashga doir shartnoma imzolandi.

Orol dengizi ilgari vaqtda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan biri hisoblanib, unda baliqchilik, ovchilik, transport va erkratsion maqsadlarda foydalanilar edi. Dengiz suv rejimini unga quyiladigan Amudaryo, Sirdaryo, er osti suvlari hamda atmosfera yonilg'ilari tushishi va yuzadan suvning bug'lanishi tashkil etadi. qadimgi tarixiy davrlarda dengiz sathining 1,5 — 2,10 o'zgarishi tabiiy iqlim hususiyati bilan bo'liq bo'lib, suvning hajmi 100—150 kub km, suv sathi maydoni — 4000 kv, km ni tashkil etgan. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida su'orilishga foydalaniladigan qaytmas suvlar va qurqchilik yillari Amudaryo va Sirdaryoning deltasiga quyiladigan suv miqdori kamaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda dengizning sathi 1961-yilga nisbatan 16,8 m ga pasaydi. 1994-yil 36,6 m. Bunda dengizning hajmi 3-marta, yuzasi 2-marta, shurlanish darajasi 9-10 gG'l dan 34-37 gG'l ga ortadi; 2000-yilga borib 180—200 gG'l ko'tariladi. Schozirgi kunda dengiz sathining pasayishi yiliga 80 — 110 sm tashkil etmoqda. Qirg'oq chizig'i 60 – 80 km pasayib, ochilib qolgan erlar 23 ming km² tashkil etadi. Amudaryo va Sirdaryoning kuyi oqimlarida suvning sifati yomonlashadi, hamda ichish uchun yaroqsiz bo'libqoladi. Ekologik tizmlar, o'simlik va hayvonlar chuqur inqirozga uchrayapti. Eng yomon axvol Janubiy oroldir. Ushbu mintaqa o'z ichiga shimoliy g'arbiy qizil qum, Zaungao'z, Qora qum, Janubiyustyurt va Amudaryo delütasikabi landshaft komplekslarini oladi. Orol bo'yining umumiy maydoni — 473 ming km² bo'lsa, uning Janubiy qismi 245 ming km² tashkil etadi. Bunga KKR hududi, O'zbekistonning Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshavvo'z viloyatlari



kiradi. Orol va orol bo'yida sodir bulayotgan jadal ravishdagi cho'llanish hodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun ham miqdor va sifat jihatidan baxolash ancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Dengiz tubining ochilishi va daryo delütalarining qurishi hisobiga cho'l maydonlari kengaymoqda. Ochilib qolgan 1 mln ga maydon yuzasi mayda tuz zarrachalari bilan qoplanib yangi shakldagi qum qoplamlarini hosil qiladi. Shunday qilib, markaziy Osiyo hududida kum, tuz ayrozonalarini shamol yordamida kuchirib yuruvchi kuchli yangi manba vujudga keldi. Dastlabki ma'lumotlarga karaganda yiliga atmosferaga 100—150 mln. tonnagacha chang — tuzon kutarilishi mumkin. Dengiz tubidan kutarilganchang — tuz tuzoni atmosfera ifloslanishi 5 % ham ortib yubormoqda Chang — tuzonlarning atmosferaga kutarilishi 1-marta 1875-yili kosmosdan ko'zatilgan. Chang — to'zon uzunligi — 400 km, eni esa 40 km bo'lib, radiusi 300 km tashkil etadi. Tuzlarning er yuzasida yogilishi natijasida paxtaning hosildorligi 5 — 15 % sholining esa 3-6 % pasayib ketdi. Orol bo'yiga yogilayotgan chang — tuz zarrachalaridan umumiy miqdor o'rtacha 520 kgG'ga tashkil etib, tuproq holati yomonlashuvining asosiy sababchilaridan biri bo'lib koldi. KKR ning su'oriladigan maydonlari chang — tuz fraktsiyalari 250 kgG'ga dan Chimboy tumanida 500 t gacha boradi. Sho'rlangan qum tuzlari yili orol bo'yidagi 15 ming ga Yaylovlarni egallabbormoqda. ~o'za uchun ajratilgan maydonlar kasallik ko'zgatuvchi zarakunandalar bilan zararlangan. qishloq xo'jalik maxsulotlari hosili pasayib ketmoqda. Daryoning yuqori okimidagi hududlarda meliorativ holati yomonlashishi (Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand) II kategoriyada erlaning ko'payishiga olib kelmoqda. Amudaryoning o'rta oqimi joylashgan. Amudaryo av Sirdaryo qirg'oklarini pasayish natijasida daryolarning kuyi qismida suv toshqinlarini aqmaytirib yuboradi. Bu o'z navbatida to'qay o'simliklari maydonlarini qisqarishiga, ilgari gumusga boy bo'lgan utloki — botqoqli tuproqlar unumsiz utlok takir cho'l, kumli tuproqlarga aylanishga olib keladi. Sutemizuvchi hayvonlar qushlar kamayib ketdi. Kurigan maydonlar aholi uchun xavfli kasalliklarni tarkatuvchi kemiruvchilar bilan tulib bormoqda. Orol bo'yining sanitar — epidemiologik ahvoli nixoyatda ogir aholi markaz-lashtirilgan suv bilan ta'minlash 29- 67 % ni tashkil etadi. Aholini yarmi ifloslangan ochiqsuv havzalaridan foydalaniladi. Orol dengizini saqlab qolish mumkinmi? Orol muammosini asosi uni dengiz sifatida saqlab qolish tashkil etadi. Shuni ta'kidlash lozimki Orol o'z tarixi davomida ilmiy ma'lumotlarga karaganda ko'p marta o'z shaklini o'zgartirganini va ko'rib qolgani ma'lum. Orol dengizining dastlabki absolyut balandligini tiklash uchun ming kub km dan ortiq suv kerak bo'ladi. O DYeN Orol dengizi muammosi xam diqqatga sazovordir. Orol dengizi 80-yillarda ayniqsa quriy boshladi. Hozirgi vaqtda O'rta Osiyoni umumiy muammosiga aylanib qolgan. Dengiz hozirda „o'lik dengiz“ deb xisoblanmoqda. Tirik organizm dengizda deyarli yo'q. Dengizning qurigan soxillaridagi to'planib qolgan erdagi tuzlar shamol esganda changlar bilan aralashib, inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Buni kiska kilib shunday ta'riflash mumkinki, Urta Osiyo mamlakatlarida qurg'okchilik vujudga keladi. Buni jahon xamjamiyati va Markaziy Osiyo mamlakatlari „pichoq suyakka qadalganida“ anglab

etishadi. Afsuski Orol dengizi qurib qolgandan so'ng bu muammoni echish yo'llari qidiriladi. Orol dengizining qurishining asosiy sababi bu xo'jalik ehtiyojlariga ishlatilishi ya'ni paxta, bug'doy sug'orilishiga Amudaryo va Sirdaryodan foydalanganliklari uchun Orol dengiziga suv kam etib kela boshlagan. Shu tufayli Orol dengizi sekin-asta quriy boshlaga

Orol dengizi va Orol bo'yi hududi ma'muriy jihatdan O'zbekiston (Qoraqalpog'iston) va Qozog'iston hududida joylashgan. Orol dengizining yarmidan ko'proq qismi O'zbekiston hududiga qarashli. Orolbo'yi Amudaryo va Sirdaryoning quyi qismi hamda Orol dengizi atrofidagi hududlarni, shuningdek, dengiz sathining pasayishi natijasida uning shimoli-sharqiy va janubiy qismida vujudga kelgan Orol cho'lini o'z ichiga oladi.

Orol dengizining yaqin o'tmishdagi holati[tahrir | manbasini tahrirlash]Orol dengizining 2000—2010-yillardagi ko'rinishi



Orol dengizi O'rta Osiyoda va butun dunyodagi eng yirik sho'r ko'llardan biri hisoblanadi. Yaqin o'tmishda uning maydoni orollar bilan birga deyarli 68,0 ming kv km ni, suvining hajmi 1000 kub km ni tashkil etgan. O'rtacha chuqurligi 50,5 m atrofida bo'lgan Havzasining kattaligi (690 ming kv km) jihatdan Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqoriko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin to'rtinchi o'rinda turgan. Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lib, ulardan eng kattasi Ko'korol, Vozrojdanie, Borsakelmas bo'lgan. Orol dengiziga 20-asrning 60-yillarigacha Amudaryodan 38,6 kub km, Sirdaryodan 14,5 kub km, suv kelib turgan. Dengiz akvatoriyasiga yiligi 82–170 mm yog'in yog'adi. Dengizga 5,5 kub km erosti suvlari ham qo'shib turgan. Suvning sho'rliigi 10-11 % bo'lib, suv tarkibida tuzlar miqdori 11 mlrd tonna ga yaqin deb baholangan. Dengizda kemalar qatnovi mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlari bo'lgan. Orol dengizi atrofidagi aholi, asosan, baliqchilik, qisman chorvachilik, mo'ynachilik (ondatra), sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. Aralsk va Mo'ynoq shaharlari va bir qancha orollarda baliq ovlash xo'jaliklari, baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan. Baliq ovlash o'tgan asrning 90-yillarigacha davom etgan.

Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda dengiz suvi ko'tarilib, ba'zan Sariqamish va O'zboy o'zanlari orqali Kasbiy dengiziga quyilgan.

Dengiz cho'l mintaqasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'langan. O'tgan asrning boshlaridan suv sathi pasaya boshlagan. Masalan, 1911—1960-yillar davomida Orol dengiziga daryolardan yog'in bilan birga bir yilda, o'rtacha 65 kub, km suv kelib turgan; suv yuzasidan esa 66,10 kub, km suv



bug'langan. Shunday qilib, har yili dengiz 1 kub km 50 yil davomida esa 50 kub, km suvni yo'qotgan. Suv sathi ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sug'orishga ishlatilishi tufayli keskin kamaya boshlagan. O'tgan 40 yildan ko'proq vaqt davomida Orol dengizining maydoni deyarli 4-marta, suv sathi 1,8-marta, undagi suv hajmi 9-martaga yaqin kamaydi. Dengiz suvining sho'rlanishi 9-10 g/l dan 70-84 g/l gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz chuqurligining kamayishi yiliga 80-110 sm ni tashkil etadi. O'tgan 40 yil mobaynida qirg'oq chizig'i 80-100 km pasaygan. Buning oqibatida 4,5 mln gektardan oshiqroq dengiz tubi ochilib qoldi. Hozirgi kunda Orol dengizi uch qismga bo'linib ketgan. Uning sayoz kichik shimoliy qismining suvi kuchsiz minerallashgan (8-13 g/l), birmuncha kattaroq sayoz sharqiy qismi ancha kuchli sho'rlangan (68-72 g/l).

Orol dengizi asosan Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So'ngi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to'ldirishga va sug'orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo'ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko'p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. Buning oqibatida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga etib bormaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig'imi 16-17 mld kubokilometrni tashkil etadi.

Suv zahiralardan noo'rin foydalanish — Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridagi hududlarda sizot suvlarining ko'tarilib, tuproqdagi namlik bug'lanishining ko'chayishi va buning oqibatida tuproqlarning sho'rlanishining ortishiga olib keldi. Orol bo'yi hududlarida esa sizot suvlari yuzasi pasayib, er yuzasi sho'rhok tuproq bilan qoplangan boshladi.

Orol dengizi suv sathining pasayishi bilan qirg'oq chizig'i 100 km dan ortiqroq orqaga chekindi. Dengiz tubi o'rnida 4 mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho'li paydo bo'ldi. Ana shunday qilib, Amudaryo va Sirdaryo suvidan noo'rin foydalanish 20 asr oxirida 3 mln dan ko'proq aholi yashaydigan hududda „Orol fojiasi“ deb atalgan global ekologik halokatni paydo qildi.

Orol dengizi o'rnida paydo bo'lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan. Shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko'tarilib, uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250 kg, ayrim hududlarda 500 kg gacha tuzli chang yog'iladi. Qurigan dengiz tubidan bir yil davomida 15 mln dan 75 mln tonnagacha chang ko'tarilishi mumkin. Tuzli chang to'fonlarning kengligi 40 km ga; uzunligi 400 km ga etadi. Tuzli chang Orolqumdan o'nlab, hatto yuzlab km masofaga tarqalib, tabiiy o'tloqlar, vohalardagi ekinlar, bog'lar, shaharlar va qishloqlar ustiga yog'iladi. Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog'lari



cho'qqilaridagi muzliklarga ham etib borib, u yerdagi muzliklarning erishini tezlashtirib yuborgan.

Cho'llanish va sho'rlanishning tezlashuvi oqibatida so'nggi yillarda 50 ming gektarga yaqin ekin maydoni qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoldi. Noqulay ekologik vaziyat qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va chorva mahsulotlari etishtirishning keskin kamayishiga olib keldi.

Orol dengizining quriy boshlashi iqlimga ham ta'sir ko'rsatdi, Iqlim yanada kontinentallashib, qishqi harorat o'rtacha ikki gradusga pasaydi, yozgi harorat esa ikki gradusga ko'tarildi. Buning natijasida sovuq kunlar erta tushib, ekinlarning pishib etilishi kechika boshladi. Orol bo'yi hududida vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Aholi o'rtasida yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sili, astma, bronxit) ko'paydi. Hududda kam-qonlik kasalligi 60 yillarga nisbatan deyarlik 20-marta oshganligi kuzatilgan.

OROL DENGIZINI QURISH SABABI.

Qadimda Amudaryo Uzboy orqali Kaspiyga, To'rg'ay daryosi esa Orol dengiziga quyilgan. Orol dengizi 1573-yilgacha Kaspiy dengizi bilan bog'lanib bo'lgan. Paleontologlar Orol dengizi qirg'oqlaridan kit, akula va dengizda yashaydigan qizil baliq qoldiqlarini topishgan. 1850-yilda Rossiya buyurtmasi asosida Shvesiyada qurilgan paroxod Orol dengiziga tushirilgan. 1965-yilgacha Aralsk, Mo'ynoq, Xo'jayli, Chorjo'y o'rtasida yo'lovchi va yuk tashuvchi paroxodlar qatnagan. 20 asr o'rtalarida Orol bo'yida 10 ta baliq zavodi va baliq konservalash kombinati ishlab turgan, Orol dengizidan yiliga 450 ming sentnergacha baliq ovlangan. 1981-yilda Amudaryoda kema va parom qatnovi to'xtatilgan. Orol dengizining yuz km dan ko'proq ichkariga chekinishi natijasida kemalar quruq qum ustida qolib ketdi. 20 asr o'rtalarida Orol bo'yida umurtqali hayvonlarning 178 turi, o'simliklarning 1200 turi aniqlangan. Amudaryo qirg'oqlaridan yiliga 1 mln dan ortiq ondatra mo'ynasi tayyorlangan. O'tgan asrning 90-yillarga kelib, mo'yna tayyorlash butunlay barham topdi. Tuproqning kuchli sho'rlanishi oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish bir necha marta kamayib ketdi. Yerlarning sho'rlanishi, turar joylar, ma'muriy binolar va asfaltlangan yo'llarga katta ziyon keltirmoqda. 1986-yilda 78 % turar joylar foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan. Bu halokat ichimlik suvlarni ifloslantirib, aholi o'rtasida kasallikni kuchayishiga olib keldi. Amudaryo va Sirdaryo suvidan foydalanishda yo'l quyilgan xatoliklar Orol bo'yida ekologik falokatni keltirib chiqargan.

O'zbekistonning xalqaro maydonda tutgan o'rni tobora mustahkamlanib, o'z so'ziga ega bo'lib borayotgani har birimizni behad quvontiradi. Yaqinda dunyo bo'ylab tarqalgan yana bir xushxabar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan taklif asosida Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb

e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyaning bir ovozdan qabul qilingani barchamizga g'urur va iftixor baxsh etdi.

Qisqa vaqtda yurtimizda ana shu g'oyani yuzaga chiqarish maqsadida dadil qadamlar tashlandi. Tegishli vazirliklar, xorijdagi elchixonalarimiz va BMTdagi doimiy vakolatxonamiz tomonidan qator idora hamda tashkilotlar bilan birgalikda bu borada keng ko'lamlı ishlar bajarildi. Masalan, 2019-yilning 25-oktyabrida Nukusda bo'lib o'tgan "Orol dengizi mintaqasi — ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi" mavzuidagi xalqaro konferensiyada ilk bor rezolyutsiya loyihasi taqdim etildi.

Keyin barcha diplomatik vakolatxonalarimiz tomonidan rezolyutsiyaning mazmun-mohiyatini yetkazish maqsadida BMTga a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazildi. Turli forumlar, BMT asosiy tuzilmalarining yalpi va maxsus yig'ilishlarida uning dolzarbligi bot-bot takrorlab kelindi. Shu bilan birga, rezolyutsiya matnini kelishib olish uchun BMT a'zolarini keng jalb etgan holda qator norasmiy maslahatlashuvlar ham tashkil qilindi.

Ana shu jarayonlarda ushbu hujjat loyihasi Osiyo — Tinch okeani mintaqasi, Yevropa, Afrika, Lotin hamda Shimoliy Amerika davlatlari delegatsiyalari tomonidan yuksak baholangani va u nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyoning boshqa davlatlari uchun ham muhimligi ta'kidlangani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Rezolyutsiyaga dunyoning 60 ga yaqin davlatlari hammuallif bo'lgani ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi qanchalik dolzarb va muhimligini ko'rsatib turibdi.

Shunday qilib, mazkur hujjat BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida bir ovozdan qabul qilindi. Bu bizga katta faxr va iftixor bag'ishlashi bilan birga, unda belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarishda ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Mintaqadagi tiklanish ishlari allaqachon boshlab yuborilgan. Rezolyutsiyada keng ko'lamlı vazifalar qamrab olingan bo'lib, aslida bu boradagi sa'y-harakatlar Shavkat Mirziyoyev Prezident vakolatiga kirishgan dastlabki kunlardanoq boshlab yuborilganligidan ko'pchilikning xabari bor.


Xususan, Orolbo'yida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi salomatligini himoya qilish, bugungi hamda kelgusi avlodlar uchun beg'ubor tabiiy muhitni saqlab qolish, nabotot va hayvonot dunyosini muhofaza qilish muammolarini izchil hal etish, biologik xilmaxillik qisqarishining oldini olish, iqlim o'zgarishi salbiy oqibatlariga qarshi kurashish, transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish, atmosfera havosi ifloslanishini kamaytirish, ayniqsa, suv resurslaridan samarali foydalanish, dengiz qurishining salbiy oqibatlarini yumshatish borasidagi ishlar bir zum bo'lsin to'xtagani yo'q.


Bir paytlar baliqchilik sanoati rivoj topgan Orolbo'yi hududidagi serhosil yerlarda qishloq xo'jaligi, chorvachilik, mo'ynachilik uchun ham barcha sharoit mavjud edi. Bu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholining turmush sharoitida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Afsuski, inson omili tufayli o'tgan asrda bu yerda mavjlanib turgan butun boshli dengiz o'rni maydoni 5,5 million gektarga teng «Orolqum» sahrosi paydo bo'ldi. Bugun undan ko'tarilayotgan qum va tuz bo'ronlari bir necha ming kilometr masofagacha yetib boryapti. Hatto, uning zaharli tuzlari Antarktida sohillari, Grenlandiya muzliklari, Norvegiya o'rmonlari va Yer sayyorasining boshqa ko'plab nuqtalarida ham topilmoqda.

Orol fojiasi mintaqa iqlim sharoitini og'irlashtirib, yoz davrida qurg'oqchilik hamda jaziramani kuchaytirish, qishda esa qaqshatqich sovuq kunlarni uzaytirib yuborishdan tashqari, qator iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Shu jumladan, transport, baliqchilik, chorvachilik va mo'ynachilik hamda boshqa an'anaviy faoliyat turlari butkul inqirozga uchradi va yuz minglab odamlar ishsiz qoldi. Natijada ekologik migratsiya jarayonlari avj oldi.

Orol fojiasi hudud aholisi salomatligiga jiddiy tahdid solayotgani ham sir emas. Aholi orasida kamqonlik, buyrak, jigar, oshqozon-ichak, nafas yo'llari, onkologik, yurak-qon tomir va boshqa kasalliklar ortgani buning dalilidir.

Orol muammosining biosfera, aholi turmush sharoiti hamda genofondiga ta'sir qamrovi oshib, global tus olganiga ham qariyb yarim asrga yaqin vaqt o'tdi. Ammo shu paytgacha dunyo hamjamiyati tomonidan Orol fojiasini birga bartaraf qilish, uning salbiy oqibatlarini yumshatish, hududda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha maqtanarli ishlar deyarli ko'zga tashlanmadi. Aynan Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan mazkur masalaga butun dunyo e'tibori qaratildi va biz mamnuniyat bilan tilga olayotgan rezolyutsiya qabul qilindi.





Orol muammosi qay yoʻsinda hal etilayotgani haqida gap borar ekan, avvalo, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Orolboʻyi mintaqasini rivojlantirish masalalari qoʻmitasi tashkil etilganligini aytish joiz. Bu tashabbus Qoraqalpogʻiston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 11-noyabrdagi “2020 — 2023-yillarda Qoraqalpogʻiston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bu boradagi ishlarni yana-da kuchaytirdi. Ayniqsa, belgilangan loyihalarni amalga oshirishga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida qaror bilan tadbirkorlik subyektlari yer hamda mol-mulk soligʻidan ozod qilingani va ularga boshqa qator imtiyoz hamda yengilliklar berilgani katta ahamiyatga ega boʻldi.

Ushbu hujjat asosida 21 trillion 209 milliard soʻmlik 2 ming 788 ta loyiha ustida jadal ish olib borilyapti. Qolaversa, hududda 2020 — 2023-yillar davomida qariyb 12



trillion 320 milliard soʻmlik 1 ming 359 ta investitsiya loyihasini roʻyobga chiqarish orqali 17 ming 630 dan ziyod yangi ish oʻrinlari yaratish ham koʻzda tutilgan boʻlib, bu hududdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishda beqiyos ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Eʼtiborlisi, bugungi kunga kelib, 840 ta loyiha ishga tushirilib, 5 ming 75 ta ish oʻrni ochildi. Xalqaro moliya institutlarining qiymati 1 326,7 million AQSH dollariga teng 20 ta loyihasini amalga oshirish ishlari ham jadal davom ettirilmoqda.

Yuqorida nomi keltirilgan qaror asosida Qoraqalpogʻistondagi 45 ta mahalla sharoiti ogʻir toifaga kiritilgan boʻlib, ularda 192 mingdan ziyod kishilar yashaydi, ularning 51,3 foizi ayollar, 56,2 foizi yoshlar, ishsizlar soni esa 9 ming 617 tani tashkil etadi.

Qaror asosida bu mahallalar uchun qariyb 3 trillion soʻm yoʻnaltirilgan va hozir 437 ta obyektga ish olib borilmoqda. Ijtimoiy muassasalarni qurish hamda rekonstruksiyalashga 200 milliard soʻm, uy-joy qurish, yoʻl taʼmirlash, elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi taʼminoti, axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, obodonlashtirish ishlari uchun 460 milliard soʻm, aholi bandligini taʼminlashga 2,3 trillion soʻm mablagʻ yoʻnaltirilishi koʻzda tutilgan. Shu bilan birga, fuqarolar yigʻinlari xizmat binolarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, jihozlash, 12 ta tumanda “Mahalla markazlari” binolarini barpo etish rejalashtirilgan va bugungi kunda ushbu vazifalar birin-ketin bajarilmoqda.

Shu kunlarda Orolboʻyida yana qator muhim tadbirlar boʻlib oʻtayotir. Masalan, Madaniyat vazirligi tomonidan IFNC (Xalqaro milliy liboslar festivali) hamkorligida 23 — 25-may kunlari Ispaniyaning xalqaro toifadagi «Azukar Moreno» hamda Oʻzbekistonning “Dil Orom” milliy liboslar brendlari ishtirokida Ellikqalʼa tumanida «Etno Aral» deb nomlangan fotosessiya tashkil etildi. 23 — 30-may kunlari esa Madaniyat vazirligi va ZOʻR TV telekanali hamkorligida Nukus shahrida “Omadli sayohat” teledasturi tasvirga olinadi.

Qoʻmita tomonidan hududning ekoturizm salohiyatini roʻyobga chiqarish, jozibadorligini taʼminlash, qoraqalpoq elining madaniy qadriyatlari va anʼanalarini avaylab-asrash maqsadida qoraqalpoq oʻtovini YUNESKO nomoddiy madaniy boyliklari roʻyxatiga kiritish saʼy-harakatlari boshlab yuborilganligini ham mamnuniyat bilan aytmoqchimiz.

Eng muhimi, natijalar hozirdan koʻzga tashlanib qoldi. Buni birgina Moʻynoqda amalga oshirilgan bunyodkorlik hamda obodonlashtirish ishlari qanday samaralar berayotgani misolida ham kuzatish mumkin.

Bunday quvonchli natijalar tabiatda ham kuzatilmoqda. Dengizning qurigan tubida qariyb 1 million 700 ming gektarlik oʻrmonzorlar barpo etilgan boʻlib, ular



hozirdan shamol tezligini pasaytirish va qumli-tuzli boʻronlarni kamaytirishga xizmat qilyapti. Yaqin kelajakda esa bu boradagi koʻrsatkichlar yana-da yaxshilanishidan umid qilyapmiz. Negaki, bir tup oʻrta yoshli saksovul daraxti oʻz ildizi bilan 10 tonnagacha qumni ushlab qolishi mumkinligi mutaxassislar tomonidan ilmiy oʻrganilgan. Shuningdek, 2 yoshli saksovulzorda shamol 20 foizgacha, 6 yoshli saksovulzorda 80 foizgacha pasayar ekan. 7 yoshli saksovulzorda shamol umuman toʻxtab, atmosferaning chang-qum va tuz bilan ifloslanishi 6 barobarga kamayadi. Bir gektarda 4 yoshli saksovul-cherkez oʻrmonzori bir yilda 1158 kg. is gazini yutib, 835 kg. kislorod ajratadi. Bu esa vaqti kelib sahro yana yashil hududga aylanadi, deganidir.

Orolboʻyidagi shu kabi yangilanishlarni xuddi his etgandek yovvoyi hayvonlar va qushlar hududga qaytib kelib, muqim yashashni boshlayotgani ham biz olib borayotgan ezgu ishlarning oʻziga xos samarasidir. Binobarin, bu yerda artezian quduqlardan suv chiqarish hisobiga oʻzlashtirilgan maydonlardagi kichik koʻllar atrofida qamishzor hamda butazorlar paydo boʻlyapti. Shu tariqa yangi bir ekotizim hosil boʻlib, yovvoyi hayvonlar hamda qushlarni oʻziga jalb etishga, ular oʻtroqlashib in qoʻyishiga va koʻpayishiga sharoit yaratilyapti. Muhimi, ana shu saʼy-harakatlar hozirdan natijasini bera boshladi, yaʼni hududda tulki, quyon, chiyaboʻri, saygʻoq, qulon hamda toʻngʻiz kabi turli jonivorlar, lochin, flamingo va oqqushlar sezilarli darajada koʻpaydi.

Umuman, Orolboʻyi mintaqasidagi vaziyatni oʻnglashga qaratilgan ishlar tobora kengayib bormoqda. Oʻzbekiston Prezidentining tashabbusi bilan qabul qilingan maxsus rezolyutsiya esa bu boradagi ishlarni yana-da tezlashtirishga, dunyo hamjamiyatining ushbu yoʻnalishdagi amaliy harakatlarini kuchaytirish va birlashtirishga, pirovardida esa mintaqa hayotini bir paytlarda boʻlganidek joʻshqin bir holga keltirishga xizmat qiladi. Zero, Orol muammosi — dunyo muammosi. Shunday ekan, uni birga hal etamiz, birgalikda harakat qilsak, albatta, unga yechim topamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

↑ Reclaiming the Aral Sea, Scientific American, mart, 2008

↑ „arxiv nusxasi“. 31-oktabr 2014-yilda asl nusxadan arxivlandi